



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziyo ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «17» август

VI-34-74-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-sonli qarorining
11-bandi ijrosi bo‘yicha Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan
foydalinish tartibi bo‘yicha 2021-yilning 6 oyida amalga oshirilgan ishlar
hisoboti to‘g‘risida**

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalinish tartibi bo‘yicha 2021-yilning 6 oyida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Madaniy meros agentligi Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i Sh.Mamatqulovaning axboroti xalq deputatlari viloyat Kengashidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deputatlik guruhining yig‘ilishida eshitilganligini va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deputatlik guruhining yig‘ilishi 2021-yil 15-iyul kuni ZOOM dasturi orqali o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmonov) va tumanlar hokimlari fermer xo‘jaliklari balansida turgan arxeologiya yodgorliklari va ularning muhofaza hududlarini yodgorlikka biriktirib berish chorasini ko‘rsin.

3. Viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i J.To‘rayev, viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov), viloyati Madaniy meros boshqarmasi (Sh.Mamatqulova) bosqichma-bosqich arxeologiya yodgorliklarining chegaralarini o‘rash bo‘yicha 5 (besh) yillik dastur ishlab chiqsin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari - Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i F.Tairov moddiy-madaniy meros obyektlarida faoliyat olib borayotgan jamoatchi inspektorlari tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilib borsin.

5. Viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i J.To‘rayev, Madaniy meros boshqarmasi (Sh.Mamatqulova) moddiy-madaniy meros

obyektlari va ularning muhofaza hududlaridagi bo'sh turgan yer maydonlaridan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yishni nazarda tutsin.

6. Viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinosi - viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig'i J.To'rayevga Moddiy-madaniy meros obyektlari va ularni muhofaza qilish boshqarmasining yetarli moddiy texnik bazasi bilan ta'minlatinishi doimiy nazoratga olsin.

7. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) moddiy-madaniy meros obyektlarini saqlab qolish maqsadida ularni ta'mirlash-tiklash va muhofaza qilish ishlariga muntazam ravishda mahalliy budgetdan moliyalashtirishni nazarda tutuvchi tizim yaratish yuzasidan xalq deputatlari viloyat kengashiga yozma taklif kirtsin.

8. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdar shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashidagi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi raisi P.Bakirov zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Боболов Т. А.